

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
ACTUAL ISSUES OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT: PROBLEMS AND
SOLUTIONS
JUNE 6-7, 2023**

**ORGANIK DEHQONCHILIKNI DUNYO MAMLAKATLARI VA
RESPUBLIKAMIZDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

¹Xo‘jamshukurov Nortoji, ²Abdutolibov Muxriddin

¹Tashkent kimyo-texnologiya institut, biologiya fanlari doktori, professor

²Andijon davlat universitet, tayanch doktoranti, m.z.abdutolibov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7998923>

Annotatsiya. Maqola adabiyot ma'lumotlarga asoslangan. Organik dehqonchilikning tarixiy evolyutsiyasi va uning xorijda erishgan yutuqlari haqidagi adabiyotlardan ma'lumotlar veb-saytlarda va nashr etilgan manbalardan to'plangan. Maqolani tayyorlash uchun organik dehqonchilikka oid, kitoblar va davriy nashrlar va gazetalar hisobotlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Organik dehqonchilik, kimyoviy o'g'itlar, bioo'g'itlar, iqtisodiy samaradorlik, aholi salomatligi, ekologik omil, tuproq unumдорлигi, salbiy ta'sirlar.

KIRISH. (Introduction) Mustaqillik yillarda barcha sohalar qatorida agrar sohani ham tartibga solish maqsadida yetarli darajada normativ-huquqiy xujjatlar ishlab chiqildi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish munosabatlari isloh qilinib, mulkiy munosabatlar yanada takomillashtirildi. Agrar yo‘nalishda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tarkibi, mazmuni va mohiyati keskin o‘zgarganligiga barchamiz guvoh bo‘lib turibmiz.

O‘zbekiston aholisi 100 yil ichida qariyb 30 million kishiga oshdi. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko‘ra, yillar kesimida mamlakatimiz doimiy aholisi soni taxlil qilsak: 1920-yil — 4,4 mln kishi; 1930-yil — 4,9 mln kishi; 1940-yil — 6,6 mln kishi; 1950-yil — 6,2 mln kishi; 1960-yil — 8,4 mln kishi; 1970 yil — 11,8 mln kishi; 1980-yil — 15,8 mln kishi; 1990-yil — 20,2 mln kishi; 2000-yil — 24,5 mln kishi; 2010-yil — 28 mln kishi; 2020-yil — 33,9 mln kishi; 2023-yilning 1-yanvar holatiga Respublikaning doimiy aholisi 36 mln 24 ming 946 nafarni tashkil etgan [22]. Axoli sonini oshishi tabiiyki ozuq-ovqatga bo‘lgan talabni kun sayin oshib bormoqda. Aholini sifatli oziq-ovat bilan ta’minlar dunyoning barcha mamlakatlarini oldida turgan glabal muammolardan biridir. Aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta’minlashda qishloq xo‘jaligi ekinlarini organik ozuqalar bilan yetishtirish muhim hisoblanadi.

Materiallar va usullar (Methods). An‘anaviy dehqonchilik (turli davr va hududlarda ko‘plab o‘ziga xos turlari) qishloq xo‘jaligining asl turi bo‘lib, ming yillar davomida amalda bo‘lgan. Barcha an‘anaviy dehqonchilik hozirda "organik dehqonchilik" deb hisoblanadi, ammo o‘sha paytda ma'lum noorganik usullar mayjud emas edi. Misol uchun, o‘rmon bog‘dorchiligi, ya‘ni to‘liq organik oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimi tarixdan oldingi davrlardan boshlab, dunyodagi eng qadimgi va eng bardoshli agroekotizim hisoblanadi.[3] Ongli ravishda organik qishloq xo‘jaligi (an‘anaviy qishloq xo‘jaligi usullaridan farqli o‘laroq, har doim faqat organik vositalardan foydalilanilgan. Britaniyalik botanik Albert Xovard zamonaviy organik qishloq xo‘jaligining asoschisi xisoblanadi, chunki u birinchi bo‘lib an‘anaviy qishloq xo‘jaligiga zamonaviy ilmiy bilim va usullarni qo‘llagan. 1905 yildan 1924 yilgacha u va uning rafiqasi o‘simglik fiziologgi Gabriel Bengaliyaning Pusa shahrida qishloq xo‘jaligi bo‘yicha maslahatchi bo‘lib ishladilar va u yerda hindlarning an‘anaviy dehqonchilik amaliyotlarini hujjatlashtirdilar va ularni an‘anaviy qishloq xo‘jaligi fanidan ustun deb xisoblashdi. Ularning tadqiqotlari va ushbu usullarni yanada rivojlantirishi uning asarlarida, xususan, 1940 yilda nashr etilgan

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
ACTUAL ISSUES OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT: PROBLEMS AND
SOLUTIONS
JUNE 6-7, 2023**

"Qishloq xo'jaligi vasiyati" kitobida qayd etilgan, bu o'sha davrning ko'plab olimlari va fermerlariga ta'sir ko'rsatdi [3; 11].

1909-yilda amerikalik agronom F.X.King Xitoy, Koreya va Yaponiyada bo'lib, an'anaviy o'g'itlash, yerga ishlov berish va umumiy dehqonchilik usullarini o'rgandi. U o'z xulosalarini "Qirq asr dehqonlari" jurnalida e'lon. King qishloq xo'jaligining yangi va takomillashtirilgan usullarini joriy etish uchun jahon harakatini oldindan ko'rgan va keyingi yillarda uning kitobi muhim organik ma'lumotnomaga aylandi [5].

"Organik dehqonchilik" atamasini Biodinamik qishloq xo'jaligi xodimi Uolter Jeyms (Lord Nortborn) tomonidan o'zining "Yerga qarash" kitobida kiritilgan [15]. Organik dehqonchilik – ekologik dehqonchilik yoki biologik dehqonchilik kabi terminlar bilan xam mashxurdir [9]. Kompost go'nglar, yashil go'nglar va suyak o'g'itlari kabi organik o'g'itlardan foydalanadigan qishloq xo'jaligi tizimidir [16].

Albert Xovard qishloq xo'jaligi izlanishlarida tuproqning vayron bo'lishiga e'tibor qaratadi va uning oqibatlarini ko'rib chiqadi. U tuproq unumdorligini tiklash va saqlash usullarini ishlab chiqadi. Tuproq unumdorligi eroziyasining sabablari va manbalari va uning tirik mavjudotlarga ta'sirini izoxlagan. Qishloq xo'jaligidagi tadqiqotlarning tanqidi va tuproqni va uning hosildorligini himoya qilish uchun qanday mexanizmlarni amalga oshirilishi kerakligi haqidagi chora-tadbirlarni batafsил yoritgan [4].

Ikkinci jahon urushi davridagi texnika taraqqiyoti qishloq xo'jaligining barcha jabhalarida urushdan keyingi innovatsiyalarni tezlashtirdi, natijada mexanizatsiyalash (jumladan, yirik sug'orish), o'g'itlash va pestitsidlar sohasida katta yutuqlarga erishildi. Xususan, jangovar maqsadlarda ishlab chiqarilgan ayrim kimyoviy moddalar tinchlik davrida qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qayta yo'naltirildi. O'q-dorilarda tayyorlashda ishlatiladigan ammiakli selitra juda arzon azot manbai bo'ldi. Shu bilan bir qator yangi pestitsidlar paydo bo'ldi: qo'shinlar atrofida kasallik tashuvchi hasharotlarni nazorat qilish uchun ishlatilgan kimyoviy moddalar umumiy insektitsidga aylandi va pestitsidlardan keng foydalanish davrini boshladi.

Urishdan so'ng tobora kuchayib borayotgan va murakkab qishloq xo'jaligi texnikasi bitta fermer uchun kattaroq yer maydonlarini ishlashga imkon berdi, dalalar maydonlari kattalashdi.

1944 yilda Meksikada AQShning xususiy mablag'lari bilan Yashil inqilob (Green Revolution) deb nomlangan xalqaro kampaniya boshlandi. Bu butun dunyo bo'ylab gibridd o'simliklarni, kimyoviy nazoratni, keng ko'lamli sug'orishni va qishloq xo'jaligida og'ir mexanizatsiyani rivojlantirish bilan shug'ilandi.

Ikkinci jahon urishdan so'ng geologik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar asosiysi geografik hamda ekologik o'zgarishlar organik dehqonchilikni qayta takomillashtirish suv va havodek zarur edi. Turli xududlarda an'anaviy dehqonchilikka innovatsiya kiritish orqali organik dehqonchilikning yangi evolyutsiyasi boshlandi.

1962 yilda taniqli olim va tabiatshunos Reychel Karson DDT va boshqa pestitsidlarning atrof-muhitga ta'siri haqida ma'lumotlarni jamlovchi "Sokin bahor" asarini nashr etdi [13]. AQShda eng ko'p sotilgan va butun dunyo bo'ylab qo'llanma sifatida "Sokin bahor" asaridan foydalanildi. 1972 yilda AQSh hukumati tomonidan DDTni taqiqlashda asosiy omil sifatida ko'rib chiqiladi. Kitob va uning muallifi sababli butun dunyo bo'ylab atrof-muhitni muhofaza qilish harakatini boshlagan. Meyn organik fermerlar va bog'bonlar uyushmasi 1971-yilda tashkil etilgan [2].

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
ACTUAL ISSUES OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT: PROBLEMS AND
SOLUTIONS
JUNE 6-7, 2023**

1972-yilda Versalda Xalqaro Organik Qishloq xo‘jaligi Harakatlari Federatsiyasi (IFOAM) tashkil etildi va Fransiyada federatsiya barcha maktablar va milliy va til chegaralari bo‘ylab organik qishloq xo‘jaligi tamoyillari va amaliyotlari to‘g‘risida ma’lumot tarqatish, almashish hamda tadbiq etish bilan shug‘illandi [14]. 1984-yilda Oregon Shtatida Qo’shma Shtatlarda organik sertifikatlash xizmatini tashkil qildi [10].

Save kuzatuvlarida organik dehqonchilik bilan ishlov berilihsni boshlagandan uch yil o‘tgach, tuproq kimyoviy dehqonchilikning keyingi ta‘siridan tiklanib borayotganini aniqladi. Tuproq o‘z sog‘lig‘ini tiklagandan so‘ng, ishlab chiqarish ko‘paydi va xom ashylardan foydalanish kamaydi [17].

Kaushikning fikricha barqaror qishloq xo‘jaligini qabul qilishda muammolar va siyosat oqibatlarini tahlil qiladi. Savdo tushunchasi organik dehqonchilikda ham individual, ham milliy qarorlar qabul qilish darajasida muhim rol o‘ynaydi. Davlatga nisbatan shaxsiy imtiyozlar, hozirgi kelajakdagagi daromadlar, joriy iste‘mol va kelajakdagagi o‘sishlar va hokazolar aniqlanishi kerak bo‘lgan juda dolzarb masalalardir [8].

Veeresh organik dehqonchilik atrof-muhit va ekologiyaga jiddiy zarar etkazmasdan ishlab chiqarishni davom ettirish uchun an‘anaviy qishloq xo‘jaligiga alternativalardan biri sifatida ishlab chiqilgan degan fikrda. Biroq, uning aytishicha, turli mamlakatlarda organik dehqonchilik turlicha qabul qilinadi. Ilg‘or mamlakatlarda uning asosiy e‘tibori kimyoviy ifloslanishning oldini olishga qaratilgan bo‘lsa, Hindiston kabi mamlakatlarda tuproq unumdonligi pastligidan xavotirda. Hatto o‘g‘itlarni o‘zlashtirish qobiliyati ham tuproqning organik tarkibiga bog‘liq. Organik dehqonchilik tamoyillari an‘anaviy usullardan ko‘ra ko‘proq ilmiy asoslangan manbalardir [21].

Sharma ta’kidlashicha organik dehqonchilikni an‘anaviy dehqonchilikning eng keng tarqalgan muqobil tizimi sifatida ko‘rsatadi. Biologik dehqonchilik, tabiiy dehqonchilik va shaklidagi boshqa muqobillar permakultura ham tasvirlangan. Asosiy e‘tibor organik dehqonchilikka qaratilgan bo‘lib, u eng yaxshi deb hisoblanadi va shuning uchun keng muhokama qilinadi [18].

Singx va boshqalar organik go‘ng yordamida sholi-no‘xat ekinlarini ekish ketma-ketligi bo‘yicha tajribalarni qayd etib, nazorat guruhiga nisbatan hosildorlikning sezilarli darajada yuqori ekanligini aniqladilar. Xuddi shunday natijalar guruch, zanjabil, kungaboqar, soya va kunjut uchun ham olingan [19].

Organik ravishda o‘stirilgan tuproqlar suv ta‘siriga va ozuqa moddalarining yo‘qolishiga bardosh berishga nisbatan yaxshiroq moslashgan. Ularning tuproq degradasiyasiga qarshi turish salohiyati yuqori va qurg‘oqchil hududlarda o‘tkazilgan bir qancha tajribalar organik dehqonchilik cho‘llanishga qarshi kurashda yordam berishi mumkinligini ko‘rsatdi. Misrdagi taxminan 70 hektar cho‘lni organik va biodinamik amalyotlar orqali chorvachilikni qo‘llab-quvvatlovchi unumdon tuproqqa aylantirish mumkinligi xabar qilingan. Ba‘zi yarim quruq va qurg‘oqchil tabiatga ega bo‘lgan Hindiston tajribadan foyda ko‘rishi mumkin. [1].

Natijalar (Results). Agrar sohadagi muhim munosabatlarni tartibga solish maqsadida 1 ta Kodeks 16 ta qonun va 200 dan ortiq qonunosti xujjatlari ishlab chiqildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida” gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida” gi, “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida” gi, “Urug‘chilik to‘g‘risida” gi, “Naslchilik to‘g‘risida” gi, “Veterinariya to‘g‘risida” gi, “O‘simliklar karantini to‘g‘risida” gi, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” gi, “ Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
ACTUAL ISSUES OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT: PROBLEMS AND
SOLUTIONS
JUNE 6-7, 2023**

to‘g‘risida”gi hamda “O‘simliklarni zararkunandalardan va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida” gi kabi qator qonunlar, shuningdek, agrar sohani jahon agrar bozoriga integratsiyasini kuchaytirish, moliyaviy iqtisodiy inqirozdan himoya qilish, agrar sohada islohotlarni izchillik bilan jadallashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirlik va idoralar tomonidan qabul qilingan huquqiy me’yoriy xujjatlar soha rivojida muhim ahamiyat kasb etdi [20].

O‘zbekistonda 1992 yil 9 dekabrda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, 1993 yil 7 mayda “Alovida muhofaza qilinadigan hududlar to‘g‘risida”, 1997 yil 26 dekabrda “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish” to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar barcha o‘simliklar turlarini saqlab qolish, ularni muhofaza qilishda muhim me’yoriy asos hisoblanadi [11].

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida «Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘l qovushtirib o‘tirish - o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir... Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o‘zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosobatda bo‘ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o‘nglab bo‘lmas ekologik falokatlarga olib keladi» [7] deb ta’kidlagan edi.

2007-yil 29-oktyabr, 3932-sonli “Yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Prezident Farmoni [6] ; 2013-yil 9-apreldagi “2013-2017-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1958-som Qarori, O‘zbekiston Respublikasi VM ning 27-may 2013-yildagi 142-sonli “2013-2017 yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof muhitini muhofaza qilish Dasturini ta’minalash to‘g‘risida”gi Qarori, 2013-yil 27-dekabrda “Ekologik nazorat to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 24-fevraldagi 39-sonli “2013- 2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha davlat dasturining so‘zsiz bajarilishini ta’minalashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2015-yil 29- dekabrdagi “2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 8-oktyabrdagi 287-son bilan tasdiqlangan ”Ekologik nazoratning jamoatchi inspektori to‘g‘risida”gi Qarori ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari” mavzusidagi 2014-yil 5-6 iyun kunlari bo‘lib o‘tgan halqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida “O‘zbekistonda shakllangan ko‘p asrlik an‘anaviy sabzavotchilik va bog‘dorchilik madaniyati azaldan mahalliy o‘g‘itlardan foydalanishni ko‘zda tutadigan biologik dehqonchilik prinsiplariga asoslangan. Biz mineral o‘g‘itlar, pestitsidlar va shu kabi vositalarning o‘rniga doimo qo‘llab kelayotgan va biz uchun ustuvor bo‘lgan organik o‘g‘itlardan foydalanishni afzal deb bilamiz”-deb ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev alovida ta’kidlaganidek, ”Qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi vazifa-ko‘p tarmoqli fermerlikni rivojlantirish, har bir fermer xo‘jaligining iqtisodiy samaradorligi va

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
ACTUAL ISSUES OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT: PROBLEMS AND
SOLUTIONS
JUNE 6-7, 2023**

moliyaviy barqarorligini ta'minlashdir. Bu masalani biz mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning garovi deb hisoblaymiz".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 24-oktyabrdagi "O'simliklarni himoya qilish va qishloq xo'jaligiga agrokimyoviy xizmatlarni ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2640 sonli, 2016-yil 31-dekabrdagi "2017-yilda qishloq xo'jaligini mineral o'g'itlar bilan ta'minlash, ularni ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish hamda ishlatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2712 sonli qarorlari hamda №03/1-771-tonli 2017 yil 14 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 2017-2020 yillarda agrokimyoviy tahlillar asosida agrokimyoviy xaritanomalar ishlab berish hamda bajariladigan ishlarni moliyalashtirish taqsimoti" kabi normativ hujjatlar ishlab chiqilib ijrolari amalga oshirilmoqda.

Xulosalar. Yuqoridagi adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadi, organik dehqonchilik haqidagi fikrlar ham fermerlar, ham mutaxassislar o'rtasida bo'lingan. Organik dehqonchilikda rentabellik va hosildorlikni oshirish bo'yicha bahslar keskin, ammo uning ekologik toza tabiatini va inson salomatligini himoya qilish qobiliyati to'g'risida konsensus mavjud. Bunga mutlaqo qarshi bo'lganlar an'anaviy dehqonchilik tizimining salbiy oqibatlarini e'tiborsiz qoldirishga tayyor. Organik qishloq xo'jaligini ma'qullayotganda ikkala tizimning aralashmasini xohlaydigan yoki oddiy fermer xo'jaliklarini organik xo'jaliklarga aylantirishga asta-sekinlik bilan ehtiyyotkorlik bilan yondashishni yoqlaydiganlar ko'p. Fermerlar nuqtai nazaridan hosildorlik va moliyaviy barqarorlik masalalari hal qiluvchi ahamiyatga ega; lekin ular katta darajada javobsiz qolmoqda. Mamlakatda organik dehqonchilik uchun juda ko'p resurslarga ega bo'lgan, ammo bu borada jiddiy qadam tashlamagan geografik hududni o'rganish adabiyotlar sharhida ham uchramaydi.

Organik qishloq xo'jaligi yoki organik mahsulot tamoyili asosida olinadigan mahsulotlarni yetishtirish, saqlash va uning realizatsiyasiga qo'yilayotgan haddan tashqari qattiq talablarning qo'yilayotganligi, jumladan, organik mahsulot yetishtirishda genetik modifikatsiyalangan navlardan foydalanmaslik talabi, vaxolanki, an'anaviy seleksiya usulida tanlangan navlarning hosildorligi, abiotik va biotik ta'sirlarga chidamlilik ko'rsatkichlari modifikatsiyalangan navlarga nisbatan bir necha barovar kamligicha qolmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni hal etishda har bir mamlakat o'zining iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlaridan kelib yondashuvlarni amalga oshirayotganliklari sababli kuchli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ega bo'lgan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar hamda quyi pog'onadagi davlatlar o'rtasida kuchli tafovutlar yuzaga kelmoqda, bu esa iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan davatlarda yetishtirilgan organik mahsulotlarni yuqori tannarx asosida xorijiy davlatlarga, o'rnatilgan talablar asosida eksport qilishlariga to'sqinlik qilmoqda, ya'ni qishloq xo'jaligi kuchli rivojlangan davlatlar qo'ygan talablarni bajarish imkoniyati chegaralanib qolayotganligi, organik mahsulotlarning keng realizatsiya qilinishiga to'sqinliklari cheklash zarur.

REFERENCES

1. Alam, Anwar and Wani, Shafiq, A., 2003, Status of Organic Agriculture Worldwide-An Overview, in Proceedings of National Seminar on Organic Products and Their Future

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
ACTUAL ISSUES OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT: PROBLEMS AND
SOLUTIONS
JUNE 6-7, 2023**

- Prospects, Sher-e-Kashmir University of Agricultural Sciences and Technology, Srinagar, pp 3-12
2. Association, Maine Organic Farmers and Gardeners. "Abridged History". www.mofga.org. Retrieved 2016-12-15.
 3. Douglas John McConnell (2003). *The Forest Farms of Kandy: And Other Gardens of Complete Design*. p. 1. ISBN 9780754609582.
 4. Howard, Sir Albert, 1940, An Agricultural Testament, Research Foundation for Science, Technology and Ecology, New Delhi.
 5. J. Paull (2006). "Permanent Agriculture: Precursor to Organic Farming". Journal of Bio-Dynamics Tasmania. pp. J. Paull (83) 19–21.
 6. Karimov I.A. "Yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2007 yil 29 oktyabr, PF №3932.
 7. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. "O‘zbekiston", 1997.
 8. Kaushik, KK, 1997, Sustainable Agriculture : Issues and Policy Implications, Productivity, 37(4), Jan-Mar.
 9. Labelling, article 30 of Regulation (EU) 2018/848 of the European Parliament and of the Council of 30 May 2018 on organic production and labelling of organic products and repealing Council Regulation (EC) No 834/2007.
 10. Musick, Mark. "WA Tilth Association History". Washington Tilth. Retrieved 18 February 2015.
 11. O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi.- Chinor ENK 2009
 12. Paull John (2011). "Attending the First Organic Agriculture Course: Rudolf Steiner’s Agriculture Course at Koberwitz, 1924" (PDF). *European Journal of Social Sciences*. **21** (1): 64–70.
 13. Paull, John (2007). "Rachel Carson, A Voice for Organics - the First Hundred Years". Journal of Bio-Dynamics Tasmania. pp. (86) 37–41.
 14. Paull, John (2010) “From France to the World: The International Federation of Organic Agriculture Movements (IFOAM)”, Journal of Social Research & Policy. 1 (2): 93–102.
 15. Paull, John (2014) Lord Northbourne, the man who invented organic farming, a biography Journal of Organic Systems, 9 (1), pp. 31-53.
 16. Paull, John (2019). "Organic Agriculture in Australia: Attaining the Global Majority (51%)". Journal of Environment Protection and Sustainable Development.
 17. Save, B, 1992, Natural Farming-An Experience, in Somani and others (ed.). Proceedings of National Seminar on Natural Farming, Rajasthan College of Agriculture, Udaipur. 1992.
 18. Sharma, Arun, K, "2001, A Handbook of Organic Farming, Agrobios (India), Jodhpur.
 19. Singh, GR, 2001, Organic Farming for Sustainable Agriculture, Indian Farming, June, pp. 12-14.
 20. T.Eshnazarov. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rtal maxsus ta’lim vazirligi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti organik dexqonchilikning institutsional masalalari: holati va istiqbollari respublika ilmiy-amaliy seminari ma’ruzalar to‘plami. Toshkent-2017 4-5 b
 21. Veeresh, GK, 1999, Organic Farming Ecologically Sound and Economically Sustainable, Plant Horti Tech, 1(3), Nov-Dec.